

## O‘ZBEK VA KOREYS TILIDAGI NEOLOGIZMLARNING VUJUDGA KELISHIDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTINING O‘RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653713>

**Xudoyberdiyeva Zamona Salahiddinovna**

Samarqand Davlat Chet tillar instituti 2-bosqich magistranti.

e-mail: [ms.zamona91@gmail.com](mailto:ms.zamona91@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada “neologizm” tushunchasiga berilgan ta’rifga yondashuvlar o’rganilgan. So’nggi yillarda ilm-fan, madaniyat, texnika va sanoatning rivojlanishi bilan koreys o’zbek tillarida ham yanggi ob’yektlar, hodisa va tushunchalarga xizmat qiluvchi yangi so’z va iboralar vujudga keldi. Til birliklariga aylanib borayotgan neologizmlar vaqti kelib leksikaning dolzarb holatini aks ettiruvchi lug’atlarga kiritiladi. Maqolada neologizmlardan misollar keltirilgan, ularning muayyan davr tilini rivojlantiruvchi vosita sifatidagi mavqeyi haqidagi xulosalar taqdim etilgan.*

**Tayanch so’zlar:** Neologizm, neologizmning paydo bo’lish sabablari, texnik atamalar, leksik birlik, til manbalari, dolzarblik, neologizmdan foydalanish, so’z birliklari.

## THE ROLE OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT IN THE FORMATION OF NEOLOGISMS IN UZBEK AND KOREAN LANGUAGES

**Khudoyberdieva Zamona Salahiddinovna**

Samarkand State Institute of Foreign Languages, second year of master’s degree.

e-mail: [ms.zamona91@gmail.com](mailto:ms.zamona91@gmail.com)

### ABSTRACT

*This article discusses approaches to the definition of "neologism". In recent years, in connection with the development of science, culture, technology and industry in the vocabulary of the Korean and Uzbek languages have been a change, manifested in the appearance of new words and phrases that serve as names of new objects, phenomena, concepts. Neologisms that have become units of language, eventually included in dictionaries, reflecting the current state of vocabulary. It*

*discusses examples of the use of neologisms, the conclusion about the status of the neologism as a new word for a certain period in the development of language.*

**Keywords:** *neologism, cause of neologisms, lexical unit, language-sources, modern era relevance, use neologisms, word formation, technical terms.*

## РОЛЬ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В ФОРМИРОВАНИИ НЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ И КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКАХ

**Худойбердиева Замона Салахиддиновна,**

Самаркандский государственный институт иностранных языков, второй курс магистратуры.

e-mail: [ms.zamona91@gmail.com](mailto:ms.zamona91@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматриваются подходы к определению понятия «неологизм». В последние годы в связи с развитием науки, культуры, техники и производства в лексике корейского и узбекского языков произошли изменения, выразившиеся в появлении новых слов и словосочетаний, служащих названиями новых предметов, явлений, концепции. Неологизмы, ставшие единицами языка, со временем включаются в словари, отражающие современное состояние лексики. В ней рассматриваются примеры употребления неологизмов, делается вывод о статусе неологизма как нового слова для определенного периода развития языка.*

**Ключевые слова:** *неологизм, причина возникновения неологизмов, лексическая единица, языки-источники, актуальность современности, употребление неологизмов, словообразование, технические понятия*

### KIRISH

Insongga Yaratgan tomonidan aql-idrok berib qo'yilganki, u har daqiq a o'z ustida ishlab yangidan yangi g'oyalar va kashfiyotlar qilishga qodir. Inson yaralibdiki, ana shunday izlanishlar evaziga hozirgi kungacha bu dunyoning sir sinoatini yechishga urinib kelmoqda. O'rta asrlarni bejizga buyuk kashfiyotlar asri deyishmaydi. Yoki 21 asrni texnika asri deyilishiga aniq sabab bor. Chunki inson yangilikka oshiqib yashaydi. Uning onggi, zehni shu alfozda boyib boradi. Bunday rivojlanishning asosiy sababi insonning nutqiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Uning miyasi voqea-hodisalar haqidagi axborotni sezgi a'zolari yordamida qabul qilar ekan, onggi uni qayta ishlab til orqali yana tashqariga chiqaradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Mashxur tilshunos “Generativ tilshunoslik”ning asoschisi N.Xomskiy ayganidek, “nutqning shakllanishi inson ongida propozitiv asosli botiniy struktura vujudga kelishi va ularni grammatik transformatsiya amallari vositasida zohiriy strukturaga ko‘chirilishiga asoslanadi”[1, 49]. Ana shu hodisalarni ifodalash uchun inson uni nomlash atamalarini yaratishga urinadi. “neologizm” tushunchasi ham shu orqali paydo bo‘lgan bo‘lsa bejizga emas.

Neologizmlar (yun. neos — yangi, logos — so‘z) — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar. “Neologizmlar- bu ma‘lum bir davrda tilda paydo bo‘lgan yoki bir vaqtlar matnda yoki nutqda ishlatiladigan leksik birliklardir” V.N Yartseva. Neologizm – o‘ta nisbiy tushuncha. Avallo til taraqqiyotininig har bir bosqichi o‘z neologizmiga ega bo‘ladi, bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm bo‘lishi shart emas. Allaqachon mavjud bo‘lgan yoki yangidan yaratilgan so‘z neologizm deb atalib, biron bir narsani nomlash uchun yaratiladi. Amaldagi so‘z bo‘lsa ham yangi ma‘no beradigan so‘zga aylantiriladi. Bundan tashqari chetdan kirib kelgan so‘zlar ham neologizm bo‘la oladi. O‘tgan asrlarda “fermer” so‘zi “yer egasi, mulk sohibi” sifatida qaralgan bo‘lsa, keyingi davrda yerda ishlab daromad oladigan shaxs sifatida neologizm bo‘lib maydonga keldi. Ammo hozirgi kunda bu so‘z leksik qatlamga moslashib neologizmlik xususiyatini yo‘qotgan. Bundan tashqari, yangi so‘zlarning kirib kelishi boshqa mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar orqali yuz beradi. O‘zbeklar maroq bilan ichadigan choyimizdagi “choy” xitoychadan o‘zbek tiliga kirib kelgan. Koreys tilida ham “차” [chha] deb nomlanadi. Bu esa qadimdan “Buyuk ipak yo‘li” savdo aloqalari ta’siri natijasida Yevropa, Osiyo mamlakatlarining leksik qatlami shakllanganini ko‘rishimiz mumkin.

Neologizmlar ikki xil usul bilan yaratiladi. Birinchisi yangi yaratilgan narsani nomlash uchun, ikkinchisi oldindan mavjud bo‘lgan leksik birlik boshqa hodisaning nomiga aylantirilishi. Masalan, “sichqoncha” –bu sichqonning kichraytirilgan nomi bo‘lib, asosan sichqonning bolasiga qarata aytiladi. Biroq texnika olamida ham “sichqoncha” leksemasi mavjud bo‘lib, u kompyuter ekranidagi amallarni boshqarish uchun ishlatiladi. Avvaliga bu atama keng omma tomonidan emas balki, shu sohaning tor mutaxassisleri tomonidan ishlatilgan bo‘lsa, vaqt o‘tib barchaning uyida topiladigan qurilmaga aylangach iste’mol doirasi kengayib bordi.

Aslida har bir yaratilgan so‘z avvalida yanggi so‘z hisoblansada, vaqt o‘tishi bilan ular shu tilning leksik qatlamiga aylanadi. Ba’zi bir qabul qilingan

neologizmlarning umri qisqa bo‘ladi. Masalan, mustaqillik yillarida yaratilgan “tayyora” va “tayyoragoh” so‘zlari “samalyot” va “airoport” so‘zlari o‘rnida qo‘llanishni boshlagan bo‘lsada, xalq uni o‘z muloqotida kam qo‘llagani uchun iste‘moldan chiqib, eskirgan so‘zga aylangan.

Neologizmlar har bir mamlakat uchun xos bo‘lib, u yaratilgan va yaratilishda davom etadi. Bularga esa quyidagi omillar bosh sabab qilib ko‘rsatiladi:

- Jamiyat va boshqaruv shakli o‘zgarishi, ijtimoiy struktura (revolyutsiya, urush, to‘ntarishlar);
- Modernizatsiya va texnika taraqqiyoti.

Sobiq ittifoq davriga nazar tashlasak, rus tilidan foydalanish barcha jabhalarga keng yoyilib, barcha axborotlar “ruslashtirish” g‘oyasiga tayangan holda amalga oshirildi. “Komsomol, kolxoz, peoner” tushunchalari o‘zbek tiliga kirib “o‘troqlashib” qoldi. Lekin yuqorida aytganimizdek til ijtimoiy hodisa ekan, u turli ijtimoiy muhit ta‘sirida o‘zgarib boradi. Mustaqillik yillarida ham ayrim ruslashgan so‘zlar siyosiy tuzum ta‘sirida muloqotdan chiqib ketishga majbur bo‘ldi.

Shu o‘rinda koreys tili ham o‘zining taraqqiyot bosqichlarida chetdan kirgan ko‘plab o‘zlashma so‘zlar, neologizmlar ta‘sir doirasida shakllanib taraqqiy topib borgan.

## NATIJALAR

Ushbu bo‘limida so‘nggi yillarda ingliz tili orqali koreys va o‘zbek tiliga kirib kelgan sohaga oid terminlarni qiyosiy o‘rganishni maqsad qilganmiz. Shuningdek har 3 tildagi terminlarni solishtigan holda guruhlarga bo‘lib tasniflab chiqdik.

### 1. Ta‘lim sohasiga oid neologizmlar

Test*	테스트 *	Test*
Office	사무실	ofis
Rating	시열	reyting
Calculator	계산기	kalkulyator
Training	교육	trening, mashg‘ulot
System*	시스템*	Sistema*
Online*	온라인*	Onlayn*
Zoom*	줌*	Zoom*
Monitoring*	모니터링*	Monitoring*

Kollej	고등학교	kollej
University	대학교	universitet
Program*	프로그래프*	Programma*

Bu yerda ko‘rib turganingizdek ba‘zi ingliz tilidagi so‘zlar ba‘zilari kalkalash yo‘li bilan ba‘zilari esa transliteratsiya qilingan holda tilga kirib kelgan.

## 2. Tibbiyot va veterinariyaga oid so‘zlar guruhi

Blokada	봉쇄	blokada
Virus*	바이러스*	virus*
Coronavirus*	코로나바이러스*	koronavirus*
Operation	수술	operatsiya
Mask*	마스크*	Maska(niqob)*
Plastic surgery	성형수술	Plastic operatsiya

Ko‘rinib turibdiki yuqoridagi tibbiyotga oid atamalar ba‘zi birlari uchchala tilda ham bir xil ko‘rinishda tilga kirib kelgan. Ba‘zilari esa o‘zining muqobil varianti bilan ifodalangan.

## 3. Transportga oid so‘z va iboralar guruhi

Karter*	카터*	karter*
Taxi*	택시*	taksi*
Motorcycle	오토바이	mototsikl
Tank	탱크	tank
Bus	버스	avtobus

O‘zbek tiliga deyarli shu kungacha barcha terminlar va neologizmlar ingliz tilidan bilvosita rus tili orqali kirib kelar edi. Bunda o‘sha so‘zlar rus tilining fonetik til qoidalari asosida o‘zlashtirilgan va o‘zbek tiliga kirib kelgan: television-телевизор-televizor bo‘lsa koreys tilida “텔레비전” ya‘ni o‘zgartirilmagan holda kirib kelgan.[13,98]

## 4. Idish, o‘rin-joy, makon va bino bilan bog‘liq neologizmlar

Office	사무실	ofis
--------	-----	------

Apartment	아파트	ko‘p qavatli turar joy
Veranda*	베란다*	veranda*
Club*	클럽*	klub*
Park	공원	park
Bunker*	벙커*	bunker*
Tunnel*	터널*	tunel*
Konteyner*	컨테이너*	konteyner*

O‘zbekistonda yaqin 5 yillikda qurilish sohasida ko‘plab yangidan yangi inshootlar qad ko‘tarmoqda. Eski binolarda rekonstruktsiya ishlari jadal ketmoqda. Biz yaqin yaqingacha “veranda”, “terassa” so‘zi o‘rniga “balkon” degan so‘zni ishlatib kelar edik. Hozirgi kunda bu so‘z o‘zbek tilidagi oldindan mavjud bo‘lgan “ayvon” so‘zi bilan ham xalq tilidan ko‘p qo‘llanilmoqda.

#### 5. Sport hamda jismoniy tarbiya bilan bog‘liq so‘z va atamalar guruhi

Football	축구	futbol
Tennis*	테니스*	tennis*
Ping-Pong	탁구	stol tenisi
Bowling*	볼링*	bovling*
Skning	스키	chang‘i

Dunyoda eng mashxur va sevimli bo‘lgan soha albatta bu sport sohasi hisoblanadi. Undagi yaratilayotgan har bir termin shiddat bilan boshqa tillarga kirib boradi. Shuningdek ko‘pchilik bu terminlar boshqa tilga transletiratsiya orqali kirib keladi.

#### 6. Kompyuter texnologiyasiga oid so‘z va atamalar guruhi

Internet*	인터넷*	internet*
Driver*	드라이버*	drayver*
Mouse*	마우스	sichqoncha
Earphones	이어폰	naushnik(quloqchin)



Bunday mavzuiy guruhlar sirasini yana davom ettirish mumkin. Eng muhimi, tilimiz lug‘aviy qatlamidan mustahkam o‘rin olayotgan ana shunday inglizcha, fransuzcha, italyanacha, nemischa, ispancha o‘zlashma so‘zlarni to‘plash, ularning keyinchalik alohida-alohida, umumiy izohli lug‘atini yaratish, bunday o‘zlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan jiddiy shug‘ullanish hozirgi mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

### MUHOKAMA

Qadimda Chin nomini olgan Xitoyning qo‘shni davlatlar xususan, Koreya, Yaponiya, Indoneziya kabi mamlakatlar tiliga sezilarli tarzda o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. 약속 (yak-sok) yapon tilida (yaku-soku), 인간 (in-gan) yapon tilida (nin-gen), 미래 (mi-re) yapon tilida (mirai) kabilar koreys va yapon leksikasi o‘xshashligini ko‘rsatsada aslida, xitoy tilidan olingan bo‘lib, keyinchalik o‘zlarining til qoidalariga qarab talaffuz etilishi natijasida shu holatga kelgan. Undan tashqari koreys tiliga bilvosita yapon tili orqali o‘zlashgan so‘zlar ko‘p. Masalan, 아르바이트 (arbeit) nemis tilidan olingan bo‘lib, u yapon tili orqali kirib kelgani uchun shunday talaffuzga kelib qolgan. 화이팅 (fighting) ingliz tilida “olg‘a” ma‘nosini beradi. Bu so‘z ham koreys tiliga ilk bor yapon tilidan kirganligi uchun 파이팅 deb talaffuz qilinish o‘rniga 화이팅 deb talaffuz qilinadi. Sababi, yapon tili fonetik qoidalariga asoslangani uchundir [8,150]. Zamonaviy koreys tili lug‘atlarida esa buning ham 화이팅 ham 파이팅 ko‘rinishini uchratishimiz mumkin. Chunki Koreyaning mustaqillik yillaridan so‘ng ko‘plab chet eldan kirgan so‘zlar qayta yozuv qoidalariga asoslanib yozila boshlandi.

Mustaqilligimizga 20 yildan oshgan bo‘lsa, qariyb shu yillar mobaynida fan va texnologiya yuksalish cho‘qqisiga yetib dunyoning barcha burchaklariga o‘z urug‘ini sochdi. Rivojlangan mamlakatlar sirasiga kiruvchi Koreya, Yaponiya va shunga o‘xshash bir qator davlatlarning sohalari rivojlanib ulardagi terminlar boshqa mamlakatlarga keng yoyila boshladi. Xususan, mustaqillikni 1992 yilda birinchilardan bo‘lib tan olgan Koreya Respublikasi O‘zbekististonga chuqur ishonch bildirgan holda strategik sherikchilik bitimini imzoladi. So‘ngra har sohada o‘zining yangi g‘oyalari bilan bo‘lishdi. Bu esa yangi atamalar sohaga oid terminlar kirib kelishiga omil bo‘ldi. Andijonda Asaka shahrida Koreya bilan O‘zbekistonning ilk qaldirg‘ochlari “Neksiya, Tiko, Damas” avtomobillari quloch yozdi.

Yangilik bo‘yog‘i bor leksemaga neologizm deyiladi. Neologizm tilga umuman mansub bo‘lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo‘lishi mumkin.

Neologizm so‘z yoki so‘zning qayta nomlanishi bo‘lib, yangi narsa yoki yangi konsepsiyaning ma’nosini ifodalaydi.

<b>Koreys tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan neologizmlar</b>			
1	삼송	Samsung (ma’nosi: “Uch yulduz”)	Bu termen Koreyaning eng mashhur elektronika qurilmalari va maishiy-texnik buyumlar ishlab chiqaruvchi yirik kompaniya.
2	현대	Hyundai (ma’nosi: “Yangicha”)	Bu termen XX asrning 10 yilligida kirib kelgan yirik avtomobil kompaniyasining nomi.
3	도시락	Doshirak (ma’nosi: o‘zi bilan ishxona yoki maktabga tayyorlab oladigan yegulik qutichasi)	Bu nom O‘zbekistonning barcha do‘konlarida uchratish mumkin bo‘lgan tez tayyor bo‘luvchi lapshaning nomidir.[42,65]
4	태권도	Teykvando (ma’nosi: Tai-qo‘l, kvon-oyoq, do-yo‘l. ya’ni qo‘l va oyoq ishtirokidagi usul, yo‘l)	Bu Koreyaning milliy sport turi hisoblanadi.
5	Lotte	Lotte	Bu ham mashhur kompaniya hisoblanib, 30 dan ortiq mahsulot va xizmat turlarining brendi hisoblanadi.

## XULOSA

Hozirgi texnika asrimizda yaratilayotgan kashfiyotlarni nomlashda ingliz tilining o‘rmi beqiyos. Nou-hau, galaxy, smart, dieta, fitness, market kabi neologizmlarni Koreys xalqi ham o‘zbek xalqi ham kundalik muloqotida keng foydalanib keladi.



Shunday qilib, neologizmlar biror-bir sohaga tegishli muayyan tushuncha yoki maxsus narsani aniq ifoda etadigan so‘z yoki so‘z birikmasidir. Neologizmlarga qo‘yiladigan talab – ular bitta ma’noli bo‘lishi kerak. Tilning lug‘aviy majmuasida ular alohida bir salmoqli qatlamni tashkil qiladilar. Bunday so‘zlar jamiyat tomonidan yasalishi, tartibga solinishi va o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan yagona qatlamdir. Shuning uchun deyarli hamma tillarda neologizmlar ishlab chiqilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Sohaviy neologizmlarni tayyorlash yoki ularni me’yorlashtirish uchun tilshunoslar va o‘sha sohadagi mutaxassislardan tashkil topgan ishchi guruhlar, qo‘mitalar tashkil qilinadi. Demak, neologizm ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga doir turli qatlamlarga mansub bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi, muayyan guruh kishilari orasida bir ma’nolarda ishlatiladigan lisoniy birliklardir.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хомский Н. Картезианская лингвистика. М., 2005. – С. 49
2. Хожиев А. Лингвистик терминлариниг изоҳли лугати. –Т.,1985.-В.45
3. Standard Dictionary of the Korean Language. 표준국어대사전. Korea, 2012
4. Циньсян В. Русские неологизмы – универбы способы образования, семантика, особенности функционирования. –Санкт-Петербург, 2016. –С.15
5. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь–справочник лингвистических терминов. –М.: Просвещение. 1976.- С.199
6. Nicolas Tranter. Hybrid Anglo-Japanese loans in Korean (Linguistics 35 (1997), 133–166 0024–3949/97/0035–0133© Walter de Gruyter)
7. Choi, Jungwha. “Interpreting Neologisms Used in Korea’s Rapidly Changing Society: Delivering the Meaning of Neologisms in Simultaneous Interpretation”// *Meta: Translators’ Journal*. Vol 51, 2006. - p 188 (№ 2)
8. «Корееведение Казахстана» вып. 5. Алматы: КазУМОиМЯ им. Абылай хана. 2017. – С.150.
9. Баёнханова, И. Ф. (2021). KOREYS TILIDA SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING IFODA MA’NOSIGA KO’RA TURLARI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(2).
10. Фуркатовна, Б.И. (2021). ДИСКУРСИО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОРЕЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СТАТЕЙ О КОНЦЕПТЕ "/ЧЕЛОВЕК" 사람. Международный журнал менеджмента , 12 (2).

11. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.
12. Эшимова, Ш. 2020. Особенности метафоры тропинимического происхождения. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2 (75) (апр. 2020), 81–86.
13. 국어 어문 규정집. 교육과학기술부. 대학교과서(주). Korea, 2010. 98p.
14. 김관해. 국어 어휘론 개설. 서울, 1993. 45p.
15. 대조언어학. 허용/김선정. 소통. Korea, 2016. 18p.
16. 박기천. 현대 중국어 문화콘텐츠 신조어 연구. 청주대학교 대학원 중어중문학과 석사학위논문. 2013. 42p.
17. 심재경. 생활속 영단어. Korea, 2005. 201p.
18. 김춘식. 한국어-러시아어사전. 서울. 2008. -206, 478, 911p.
19. 김석주, 이승녕. 국어사전. 서울: 동아출판사. 1986. 132-650p
20. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
21. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching Italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
22. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
23. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.
24. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
25. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of*

- the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
26. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
27. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.
28. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
29. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
30. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
31. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
32. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
33. Tuhtasinov, Ithom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
34. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
35. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
36. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
37. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.

38. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1(4), 26-30.
39. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
40. Djurayev, D. M. *Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education*, 3(12), 240-241.
41. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ*, 1(1).
42. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (74)), 124-127.
43. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в.* (pp. 84-88).
44. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
45. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
46. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). *O'zbek Tili* [M].
47. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
48. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In *Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века* (pp. 39-42).
49. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1(4), 10-13.